

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi Komplaens nazorat  
bo'yicha bosh mutaxassis faoliyati to'g'risidagi  
NIZOM**

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 22-iyun "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" dagi **O'RQ-1155-son** Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi **PF-22-son**, 2025-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi **PF-270-son Farmonlari**, 2025-yil 21-aprelda "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-147-son** va 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" **PQ-5177-son qarorlari**, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yengilsanoatni rivojlantirish agentligining faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" **433-son** qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2026-yil 28-mart kuni dagi buyrug'i bilan tasdiqlangan "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi nizom"ga asosan ishlab chiqildi.

**I. Umumiy qoidalar**

1. Komplaens nazorat bo'yicha bosh mutaxassis (*keyingi o'rinlarda – Bosh mutaxassis*) o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlar, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktori qarorlari, buyruqlari va farmoyishlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

2. Bosh mutaxassis Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida Korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralari ko'rishga mas'ul hisoblanadi.

**II. Komplaens nazoratini tashkil etish**

3. Bosh mutaxassis faoliyatini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*keyingi o‘rinlarda – Agentlik deb yuritiladi*) hamda Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi tomonidan birgalikda amalga oshiriladi.

4. Bosh mutaxassis o‘z faoliyatida Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktoriga va Agentlikka bo‘ysunadi va uning oldida hisobdor bo‘ladi.

5. Bosh mutaxassis Agentlik bilan kelishilgan holda ochiq tanlov asosida Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktori buyrug‘iga asosan tayinlanadi.

6. Bosh mutaxassisning elektron reyestri “E-anticor.uz” elektron platformasida yuritiladi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qilingan ishlar haqidagi hisobot elektron shaklda taqdim etiladi, anonim so‘rovnomalar o‘tkazilib, natijalari jamoatchilikka e‘lon qilinib boriladi.

### **III. Komplaens bo‘yicha bosh mutaxassis lavozimiga nisbatan qo‘yiladigan talablar**

7. Komplaens bo‘yicha bosh mutaxassis lavozimiga nisbatan ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir quyidagi minimal talablar belgilanadi:

yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq, audit, tizimli tahlil, menejment yoki axborot texnologiyalari, konchilik va geologiya mutaxassisliklari bo‘yicha oliy ma‘lumot;

bosh mutaxassis lavozimi uchun mutaxassisligi bo‘yicha kamida 4 yillikish staji talab etiladi. Bunda komplayens va korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ish stajiga ustuvorlik beriladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o‘quv kurslaridan o‘tganlik to‘g‘risida sertifikatga ega bo‘lish.

Sertifikatga ega bo‘lgan mutaxassislar Agentlikda yuritiladigan ichki nazorat bo‘linmalariga nomzodlar zaxirasiga kiritilishi mumkin.

### **IV. Bosh mutaxassisni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish hamda ularni intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini kelishish**

8. Bosh mutaxassisni lavozimga tayinlashni Agentlik bilan kelishish bo‘sh lavozimlarga muqobillik asosida, ochiq va shaffof tanlovlar orqali yuqori malaka va ish tajribasi hamda kasbiy professional kompetensiyalarga ega bo‘lgan, eng munosib nomzodlarni tanlash va tayinlash maqsadida amalga oshiriladi.

Bosh mutaxassisni lavozimdan ozod etishni Agentlik bilan kelishish ushbu bo‘linning mustaqilligini va xolislikni ta‘minlash maqsadida amalga oshiriladi.

9. Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi tomonidan tanlov bosqichlarining boshlanishi va natijalari to‘g‘risida Agentlikka ma‘lumot taqdim etib boriladi.

Bunda nomzodlarning umumiy malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi. Tanlov o‘tkazilish kuni va vaqti to‘g‘risida Agentlik tanlov boshlanishidan kamida 3 kun oldin xabardor qilinadi.

10. Bosh mutaxassisni lavozimga tayinlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi PF-95-son Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash uchun tanlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga, ushbu Namunaviy nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bosh mutaxassis Agentlik bilan birgalikda o'tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi hamda tanlov natijalari bo'yicha komissiya xulosasi Agentlik bilan kelishiladi.

11. Bosh mutaxassisni lavozimdan ozod qilish masalasi Agentlik bilan kelishiladi.

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktori tomonidan Agentlikka Bosh mutaxassis lavozimdan ozod qilish haqida taqdimnoma yuboriladi. Taqdimnomada xodimni lavozimidan ozod qilish sabablari, motivlari ko'rsatiladi va ularni tasdiqlovchi hujjatlar (xodimning arizasi, ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganligiga oid ma'lumotlar va boshqalar) ilova qilinadi.

12. Agentlik tomonidan Bosh mutaxassis lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari yetarli emas deb hisoblangan taqdirda, shu jumladan ularning ta'qib qilinayotganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa, ushbu masalada ichki nazorat bo'linmasi bosh mutaxassisi bilan suhbat o'tkaziladi.

13. Quyidagilar Bosh mutaxassisi lavozimidan ozod qilish masalasini Agentlik tomonidan kelishishni rad etish uchun asos bo'ladi:

lavozimdan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

o'z zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o'ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta'qib qilinganligi holati aniqlanganda.

14. Taqdim etilgan hujjatlar Agentlik tomonidan uch ish kuni ichida ko'rib chiqilib, tegishli davlat organi va tashkilotiga ichki nazorat bo'linmasi mas'ul xodimini lavozimdan ozod qilishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko'rsatilgan xat yuboriladi.

15. Bosh mutaxassis xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish masalasi Agentlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Bunda Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktori tomonidan bosh mutaxassisni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha Agentlikka taqdimnoma kiritiladi.

16. Taqdimnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lgan holatlar va ularning tavsifi; aniqlangan qoidabuzarlik yoki kamchiliklar bo'yicha xizmat tekshiruvi materiallari;

xodimning tushuntirish xati yoki uni taqdim etishdan bosh tortganligi to'g'risidagi dalolatnoma;

qo'llash taklif etilayotgan intizomiy jazo turi.

17. Quyidagilar Bosh mutaxassisni intizomiy javobgarlikka tortish masalasini Agentlik tomonidan kelishishni rad etish uchun asos bo‘ladi:

intizomiy javobgarlikka tortish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o‘ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta‘qib qilinganligi holati aniqlanganda;

intizomiy jazo turi amaldagi qonunchilikka zid bo‘lsa.

18. Taqdim etilgan hujjatlar Agentlik tomonidan uch ish kuni ichida ko‘rib chiqilib, Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi Bosh mutaxassisni intizomiy javobgarlikka tortishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko‘rsatilgan xat yuboriladi.

19. Bosh mutaxassisning ilk marta lavozimga tayinlanganda u Agentlikda ikki haftalik stajirovkadan o‘tadi.

Bosh mutaxassis har yili korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha qisqa muddatli malaka oshirish kurslari hamda qonunchilikda belgilangan tartibda har uch yilda attestatsiyadan o‘tadi.

## **V. Bosh mutaxassis faoliyatiga nisbatan samaradorlik ko‘ratkichlarini qo‘llash**

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2025 yildagi PF-270-son Farmoniga asosan Bosh mutaxassisning faoliyatiga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) qo‘llanilmaydi.

Bunda samaradorlik ko‘rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalar tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda tatbiq etiladi.

21. Bosh mutaxassisning faoliyatiga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) pasaytirish masalalari Agentlik roziligi bilan amalga oshiriladi.

22. Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktori tomonidan Bosh mutaxassisga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) pasaytirish bo‘yicha Agentlikka taqdimnoma kiritiladi.

23. Samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) pasaytirishga quyidagilar asos bo‘ladi:

- ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etilmaganligi;
- xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaslik yoki intizomiy jazo qo‘llanilganligi;

- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi to‘liq joriy etilmaganligi yoki samarali faoliyat yuritmayotganligi;

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rilmaganligi.

24. Davlat organi yoki tashkilot tomonidan taqdim etilgan asoslantiruvchi hujjatlar Agentlik tomonidan ular berilgan kundan boshlab uch ish kuni ichida ko‘rib chiqilib, ichki nazorat Bosh mutaxassisi bosh mutaxassisga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarini pasaytirishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko‘rsatilgan xat taqdim etiladi.

## **VI. Bosh mutaxassisning asosiy vazifalari va funksiyalari**

25. Bosh mutaxassisning asosiy maqsadi Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ISO 37001 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishini oldini olish, Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi proflaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta'minlashdan iborat.

26. Quyidagilar Bosh mutaxassisning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki siyosat amalga oshirilishi hamda ushbu sohadagi faoliyat muvofiqlashtirilishida bevosita ishtirok etadi;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi faoliyatida korrupsiya holatlarining oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar hamda nazorat tizimi joriy etilishini ta'minlaydi;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida qonunga rioya etish, unga nisbatan hurmat ruhini mustahkamlash, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat muhitini yaratish va bu borada aholining ijobiy fikrini shakllantirish choralari ko'radi;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasini amalga oshiruvchi, budget mablag'lari aylanmasini nazorat qiluvchi bo'linmalarining hamda shaxsiy xavfsizlik bo'linmalarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni tizimli tahlil qilish va baholash, bartaraf etish va ularning oldini olish bo'yicha zarur choralarni ishlab chiqadi hamda ularning ijrosini tashkil etadi;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirib borish choralari ko'radi;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida shaffoflikni ta'minlash, affillanganlik hamda manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi nazorat tizimini amalga oshiradi;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiya holatlari hamda ularning oldini olish yuzasidan belgilangan tartibda tekshiruvlar o'tkazilishini hamda qat'iy javobgarlik choralari ko'rilishini tashkil etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

tizimda davlat xizmatlarini ko'rsatishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, maishiy korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan, raqamlashtirish, byurokraziyani qisqartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va yakunlari bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bekor qilish bo'yicha taklif kiritish;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslik choralarini ko'rish, davlat xaridlari bo'yicha preventiv o'rganishlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan muntazam ravishda Agentlik elektron hisobot taqdim etib borish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaviy xavf-xatarlar ro'yxatini shakllantirish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta'minlash;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beruvchi situatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar kiritish;

mehnat jamoasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslik va odob-axloq qoidalariga rioya qilish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish va joriy etish yuzasidan takliflar kiritish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni proflaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorini olib borish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining komplaens bo'yicha bosh mutaxassisi qonunchilikka muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshiradi.

27. Bosh mutaxassis o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi.

**Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish sohasida:**

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun direktorga kiritadi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini Yengil sanoatni

rivojlantirish agentligi direktorining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtayi nazardan baholaydi va xulosalar beradi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni kiritib boradi.

**Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni proflaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:**

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlari tomonidan o'xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot to'playdi;

- maxsus aloqa kanallari orqal Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarlik haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reestri yoki o'tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro'yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

- davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

- korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlariga yetkazadi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;

- korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarliligini nazorat qiladi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida tashkilotda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

- har oyda, keyingi oyning birinchi o'n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to'g'risidagi oylik hisobotni Agentlikka hamda direktorga taqdim etadi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- o'z vakolati doirasidagi yirik investitsiya loyihalarni to'g'ridan-to'g'ri ekspertiza qiladi va baholaydi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq funksiyalarni amalga oshirishda byurokratik holatlar va korrupsiyaviy omillarni aniqlaydi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining davlat xizmatlarini ko'rsatish soha va tizimida mavjud byurokratik to'siqlar va korrupsiyaviy omillar bo'yicha axborot-tahliliy ma'lumotlar tayyorlaydi, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, shu jumladan sohada raqamlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va taqdim etadi;

- idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish hamda ekspertiza yakunlari bo'yicha aniqlangan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omilni bartaraf etish choralari ko'radi yoki bekor qilish bo'yicha davlat organlari yoki tashkilotlari rahbariga taklif kiritadi.

- korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralari mutanosibli va yetarliligini nazorat qiladi;

- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

- har chorakda va Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktori talabiga ko'ra Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagi korrupsiyaviy holat haqida direktorga ma'lumot kiritib boradi;

**Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:**

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Yengil sanoatni rivojlantirish agentligiga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining ISO 37001 korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta'minlaydi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyani oldini olish bo'yicha o'quv materiallarni ishlab chiqadi;

- o'quv rejaga muvofiq Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishi hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining rasmiy veb-saytidagi "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat" Bosh mutaxassisi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi saxifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilab borilishini ta'minlaydi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va vazirlikning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unga ishtirok etadi;

- Odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga olish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqulligini tekshiradi;

- amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazadi;

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi vakolatli davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:**

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga nisbatan muvofiq munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqishida ishtirok etadi;

qonunchilik hujjatlari bilan Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuboradi va ularning so'rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqini muxofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining "Masofaviy audit" AATda aniqlangan xavflarni o'z vaqtida bartaraf etish choralari ko'rish maqsadida "To'lovlarini to'xtatish" modulidan foydalanadi;

- asosiy vositalar xaridini amalga oshirish uchun xaridlarning qonuniyligi hamda asosiligi bo'yicha xulosalar beradi;

- Hisob palatasi tomonidan o'tkazilayotgan masofaviy nazorat tadbirlari davomida davlat xaridlariga hamda budget mablag'laridan samarali va maqsadli

foydalarrishga oid qonun buzilish holatlari aniqlangan taqdirda, Hisob palatasining “Masofaviy audit” AATdagi “To‘lovlarini to‘xtatish” moduli orqali G‘aznachilik xizmati qo‘mitasiga ma‘lumot yuborilib, kamchiliklarni oldini olish va bartaraf etish choralari ko‘radi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida jinoyat alomatlari, xususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to‘g‘risida zudlik bilan Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktori, Agentlik va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar beradi;

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining ichki buyruq va qarorlarini shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror, Farmon va farmoyishlari bilan tashkil etilgan komissiya va kengashlarning bayonnomalarini “E-qaror” tizimi orqali qabul qilinishini (tizimda e‘lon qilinishini) nazorat qiladi.

Bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

28. Bosh mutaxassisga ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalarning yuklanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

## **VII. Bosh mutaxassisining huquq va majburiyatlari**

29. Bosh mutaxassis o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligidagi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot hamda ma‘lumotlar bazalaridan foydalanish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko‘rish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi choralarni hamda nazorat tadbirlarini mustaqil yoki ishchi guruh tuzgan holda tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tezkor-qidiruv, tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari bilan hamkorlik qilish, ularni belgilangan tartibda jalb etish choralari ko‘rish;

korrupsiyaviy omillarni aniqlash, ularning oldini olish va korrupsiya holatlariga chek qo‘yish maqsadida shaxslarning xatti-harakatlarini, hodisalarni hamda jarayonlarni bevosita yoki bilvosita kuzatish va qayd etish;

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan, fuqarolardan ma‘lumotlarni hamda boshqa zarur hujjatlarni va materiallarni so‘rash va olish;

vakolatini amalga oshirish doirasida zarurat tug‘ilganda tegishli hujjat va materiallar bilan tanishish maqsadida davlat organi va tashkilotining obyektlariga to‘sqinliksiz kirish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida aniqlangan korrupsiya holatlari bo‘yicha yuqori turuvchi komplayens xizmatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustaqil ravishda xabardor qilish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiya holatlarini aniqlash hamda ularga chek qo'yish maqsadida muayyan shaxslar bilan belgilangan tartibda nooshkora hamkorlik o'rnatish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida aniqlangan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik faktlari bo'yicha to'plangan materiallarni qonuniy chora ko'rish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yoki bevosita ularning komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalariga taqdim etish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida qonun buzilishi hollarining oldini olish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar va ushbu hollarni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritish;

o'zi faoliyat yuritayotgan Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligiga korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'z faoliyati doirasida Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi boshqarma va bo'limlariga qonunbuzilish holatlarini oldini olish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan ko'rsatma va ularni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish;

tekshiruv o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish;

Bosh mutaxassisning vazifalari, funksiyalari va javobgarligi Agentlik bilan kelishilgan holda Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktori tomonidan tasdiqlash;

Bosh mutaxassisni intizomiy javobgarlikka tortish Agentlik bilan kelishilgan holda amalga oshirish;

Bosh mutaxassis zimmasiga ularning vazifa va funksiyalari bilan bog'liq bo'lmagan topshiriqlar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaslik;

Bosh mutaxassis tomonidan tizim tashkilotlariga qonunbuzilish holatlarini oldini olish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan ko'rsatma va ularni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklari alomatlari aniqlanganda yoki jinoiy guruh faoliyatiga rahnamolik qilayotgan deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lganda uning komplaens nazorat bo'yicha bosh mutaxassisi yuqori turuvchi komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati bilan kelishgan holda tegishli hujjatlar va ma'lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga to'g'ridan-to'g'ri taqdim etish, shuningdek kadrlar masalasi va

moliyaviy xarajatlar bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish huquqini vaqtincha to'xtatish yoki tegishli rahbarni yoxud xodimni vazifasini bajarishdan vaqtincha chetlatish borasida taklif kiritish vakolatiga ega bo'ladi.

Bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

30. Bosh mutaxassis o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish va o'z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida jinoyat alomatlari, xususan, korrupsiya holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan-to'g'ri Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktoriga va boshqa huquqni muxofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktoriga ma'lumotnoma kiritish;

har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning birinchi o'n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to'g'risida oylik hisobotlar Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktoriga va korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga taqdim etish;

Bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

31. Bosh mutaxassis korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo'ljallangan o'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglarda ishtirok etadi. O'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglar Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi yoxud Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tomonidan tashkil etilishi mumkin.

32. Bosh mutaxassis faoliyatining natijalari Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi samaradorlik va maqsadli ko'rsatgichlariga erishish natijalariga asosan baholanadi.

Bosh mutaxassis faoliyatining maqsadli ko'rsatgichlari Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Bosh mutaxassis faoliyati samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish ustidan nazorat Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

## **VIII. Yakuniy qoidalar**

33. Mazkur Nizomga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonunchilik normalari va me'yoriy hujjatlari qabul qilinganda o'zgartirish kiritish mumkin.

34. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.